

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARIGA YARATILAYOTGAN YANGI IMKONIYATLAR

Shoxobiddinov Baxriddin Bahodir o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Xalqaro Adabiyot San'at Madaniyat va Ijtimoiy fanlar
Akademiyasi Butunjahon Xalq Ijodkorlari Uyushmasi Andijon viloyati bo'limi yoshlar
qanoti rahbari*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar siyosatining tubdan yangilanishi, ularning ta’lim, kasbiy rivojlanish va ijtimoiy faolligini oshirish yo‘lidagi islohotlar yoritilgan. Yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash tizimi hamda davlat dasturlari orqali ularning jamiyatdagi rolini mustahkamlash jarayonlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, yoshlar siyosati, ta’lim, innovatsiya, imkoniyat, islohot, ijtimoiy faollik, davlat dasturlari.*

Kirish. Yangi O‘zbekiston davrida amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida inson, xususan, yosh avlod turadi. Mamlakat rahbariyati tomonidan yoshlar siyosatiga alohida e’tibor qaratilib, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ta’lim, ilm-fan, tadbirkorlik va madaniyat sohalarida o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. “Yoshlar — kelajagimiz” degan tamoyil amalda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan.

Asosiy qism. O‘zbekiston yoshlar mamlakati. Davlatimiz siyosati ham har tomonlama yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Yangi O‘zbekiston strategiyasida yoshlar masalasi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. 2017-yilda qabul qilingan “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonun hamda “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o‘rnini oshirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda har bir tuman va shaharda Yoshlar ishlari agentligi faoliyat yuritib, yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bilan shug‘ullanmoqda.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusni targ‘ib qilish va ro‘yobga chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur g‘oyani amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi qoshida “5 tashabbus loyiha ofisi” faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Tegishli loyihalar, jumladan, “Sport karvoni”, “Bir million dasturchi”, “Yosh kitobxon”, “Eng yaxshi kitobxon oila” kabi loyihalar amalga oshirilmoqda.

Aytish joizki, yoshlarga ko‘rsatilayotgan e’tibor va davlat g‘amxo‘rligi har yili kengayib bormoqda. Bosh qomusimizda yosh avlodning huquq va manfaatlari aniq belgilangan moddalar bilan mustahkamlanganligi, bu sohada huquqiy bazani yanada kengaytirish va amaliy ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish imkonini yaratmoqda.

Yangilangan Konstitutsiyamizda yoshlarning ta'lim olish, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joy bilan ta'minlanishi hamda bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Hozirgi kunda yoshlarga maktab, professional va oliy ta'lim sohalarida bilim olish, zamonaviy kasb-hunarlarni egallash, madaniyat va sport yo'nalishlarida o'z iste'dodlarini namoyish etish, shuningdek, turli sohalarda tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun yaratilgan sharoitlar natijasida yoshlar ko'plab yangi marralarni zabt etmoqda.

Turli sohalarda samarali faoliyat yuritayotgan, yuqori natijalarga erishib, tengdoshlariga o'rnak bo'layotgan yigit-qizlarni rag'batlantirish maqsadida "Mard o'g'lon" davlat mukofoti va "Kelajak bunyodkori" medali ta'sis etildi.

Yoshlarning bilim olish va kasbiy malaka oshirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida yangi oliy ta'lim muassasalari tashkil etilmoqda, xalqaro universitetlar faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali yoshlarning xorijda tahsil olishi uchun grantlar ajratilmoqda. Shuningdek, "Ustoz-shogird" tizimi asosida kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirish choralari ko'rilmqda. Bu jarayon yoshlarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar va imkoniyatlar har tomonlama rivojlanmoqda. 2023 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, aholi sonining o'sishi va yoshlar orasidagi ulushning ortishi, davlatimizning kelajagi uchun ijobiy ko'rsatkichdir. 14-30 yosh oralig'idagi yoshlarning qariyb o'n millionga yaqinlashgani, jamiyatimizda yoshlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Yoshlar o'rtasida raqamli kitobxonlikni rivojlantirish maqsadida "Mutolaa" mobil ilovasining ishga tushirilishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu platforma orqali taqdim etilayotgan bepul adabiy asarlar va ilmiy kitoblar, yoshlarning bilim olish va madaniyatini oshirishda yordam bermoqda. An'anaviy kitobxonlik va raqamli texnologiyalarni birlashtirgan ushbu ilova, yoshlarni kitob o'qishga jalb etishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Axborot texnologiyalari sohasida ham yoshlar uchun katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Davlat tomonidan 300 ming nafar yoshlarni IT sohasida tayyorlash rejalari, ularni xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh qilishga qaratilgan. Bu yoshlarning kasbiy malakasini oshirib, zamonaviy texnologiyalarni egallashlariga yordam beradi.

Mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Prezidentning "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi va boshqa farmonlar, raqamlashtirish jarayonini yanada tezlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilab beradi. Bu esa nafaqat iqtisodiy rivojlanishni, balki yoshlarning raqamli ko'nikmalarini oshirishga ham xizmat qiladi.

Yosh tadbirkorlarni rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. "Yoshlar daftari" tizimi orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar aniqlanib, ularning bandligini ta'minlash choralari ko'rilmqda. Shu bilan birga,

yoshlar startap loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun maxsus "Yoshlar innovatsiya markazlari" tashkil etildi.

Yoshlar parlamenti, Yoshlar ittifoqi va turli jamoatchilik tashkilotlari orqali yoshlarga o'z fikrini bildirish, qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish imkoniyatlari berildi. Ularning tashabbuslari davlat darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu esa fuqarolik ongini shakllantirish, ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa. Yangi O'zbekiston yoshlariga yaratilayotgan imkoniyatlar mamlakat kelajagini belgilovchi eng muhim omillardandir. Ta'lim, ilm-fan, tadbirkorlik va ijtimoiy sohalarida olib borilayotgan islohotlar yoshlarning salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni jamiyat taraqqiyotining faol ishtirokchisiga aylantirishga xizmat qilmoqda. Kelgusida ham yoshlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochish, ularni qo'llab-quvvatlash siyosatini davom ettirish mamlakatning barqaror taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor bo'lib qoladi.

Umuman olganda, O'zbekistonda yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar va imkoniyatlar ularning kelajagi uchun mustahkam tayanch bo'lib xizmat qilmoqda. Bu jarayonlar yosh avlodning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asari. – Toshkent, 2021.
2. "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi to'g'risidagi qarori. – Toshkent, 2018.
4. Karimova, N. "Yoshlar siyosatining rivojlanish istiqbollari." – Toshkent: Fan, 2022.
5. O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi rasmiy ma'lumotlari: www.yoshlar.gov.uz